

**O'zbekiston va Xitoy davlatlarining Bir makon, bir yo'l loyihasi
doirasidagi savdo-iqtisodiy aloqalari**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Shokirova Sevara Hayitmurod qizi

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasi bilan "Bir makon, bir yo'l loyihasi" doirasidagi savdo-iqtisodiy aloqalari to'g'risida so'z yuritiladi. O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar uzoq tarixga ega. Buyuk Ipak yo'li ulkan hududlar orasida savdo-sotiq, balki madaniy-ma'naviy qadriyatlar rivojida, davlatlar orasida axborotlar almashinuvida ham muhim vazifani bajargan. Bugun bu yo'lning qayta tiklanishi deb baholanayotgan "Bir makon, bir yo'l" loyihasi iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, savdo va investitsiya sohalarida qulay sharoitlar yaratish, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, turizm, ta'lim, madaniyat sohalarida hamkorlik salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, XXR, "Buyuk ipak yo'li", "Bir makon, bir yo'l", transport, kommunikatsiya, investitsiya, konsepsiya, loyiha, integratsiya

O'zbekiston qadimda jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo'lgan. Mustaqillik yillarida mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati misli ko'rilmagan darajada yuksaldi. O'zbekistondagi iqtisodiy taraqqiyot mustahkam makroiqtisodiy asos yaratilganidan dalolat beradi. O'zbekistonning barqaror rivojlanayotgan iqtisodiyoti, qulay geografik joylashuvi, zamonaviy transport kommunikatsiyalari, sarmoya jalb etish bo'yicha puxta hamda ishonchli strategiyasi ko'plab davlatlar ishbiarmonlarining qiziqishini oshirmoqda.

Hozirgi kundagi bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatlarning rivojlanishi va taraqqiy etishi faqat o'z salohiyat va ichki imkoniyatlarigagina emas balki, boshqa

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

davlatlar bilan olib borayotgan tashqi iqtisodiy va siyosiy faoliyatiga bog'liq bo'lmoqda. Bu kabi davlatlar o'rtasida hamkorlik va ittifoqchilik munosabatlarining o'rnatilishiga esa qadimdan rivojlangan va hozirgi kunga kelib, yanada rivoj topib borayotgan savdo yo'llarining o'rni katta. Qadimda turli mintaqalarning o'zaro aloqasida Buyuk ipak yo'lining ahamiyati katta bo'lgan. Buyuk ipak yo'li ulkan hududlar orasida savdo-sotiq aloqalarini, balki davlatlar va qit'alar o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlashga xizmat qilgan, yangi mahsulotlar va qishloq xo'jaligi ekinlari tarqalishida, madaniy-ma'naviy qadriyatlarning rivojlanishida muhim vosita vazifasini bajargan hamda shu asnoda tamaddunlararo aloqalar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

Bugun bu yo'lning qayta tiklanishi deb baholanayotgan "Bir makon, bir yo'l" loyihasi iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish, savdo va investitsiya sohalarida qulay sharoitlar yaratish, transport va kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, qishloq xo'jaligi, turizm, ta'lim, madaniyat sohalarida hamkorlik salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ma'lum bir davlat kuchayib borishi bilan jahon maydonida o'ziga bo'lgan ishonchi ham ortib boradi. Nisbatan yaqin davrda milliard kishilik aholisini eng zarur narsalar bilan ta'minlash ustuvor vazifasi bo'lgan Xitoy ham bugungi kunga kelib "Bitta makon, bir yo'l" kabi global ko'lamdagi loyihalarni ilgari surmoqda.

Ushbu mintaqaviy integratsiya loyihasi nafaqat yangi Yevroosiyo transport koridorini yaratish, balki dunyoning yirik qit'asida iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlashni ham o'z ichiga oladi. "Bir makon, bir yo'l" loyihasi geografik jihatdan Osiyo, Yevropa, Afrika hududlarini qamrab olgan va bu mintaqalarning iqtisodiy aloqalarini yanada mustahkamlash, o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish, rivojlanish uchun davlatlar o'rtasida siyosiy hamkorlik, geografik yaqinlik, iqtisodiy rivojlanish va ushbu mamlakatlarning insonparvarlik komponentining barqaror o'sish afzalliklariga erishishdan foydalanishga o'tishni nazarda tutadi. Natijada, bu nafaqat Xitoyning farovonligi, balki "Bir makon, bir yo'l" loyihasi bo'ylab davlatlarni birgalikda rivojlantirishga imkon yaratadi.

Shu jumladan, Xitoy "Bir makon, bir yo'l" loyihasini amalga oshirish

doirasida O'zbekistonning ham ishtirok etishini qo'llab-quvvatlamogda. Bundan maqsad esa Markaziy Osiyoning yirik iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan bu hududidan o'z yuklarini o'tkazishda tranzit hudud sifatida foydalanish, O'zbekistonga o'z mahsulotlarini eksport qilish hajmini yanada oshirish va xalqaro maydonda O'zbekistonning Xitoy tashabbuslarini keng qo'llab-quvvatlovini ko'zlamogda.

O'zbekiston Respublikasi "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini avval-boshdanoq qo'llab-quvvatladi. Mamlakatning BMBYga jalb etilishi barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash, butun Markaziy Osiyoga ijobiy ta'sir ko'rsata oladigan muhim transport va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishning ustuvor maqsadlariga erishish nuqtai nazaridan muhim sanaladi. Albatta, Xitoyning loyihani amalga oshirishdagi ochiq-oydin manfaatlarini inkor etib bo'lmaydi, biroq birovlar foydasiga o'z manfaatlaridan voz kechish siyosatda hech qachon hurmat keltirmagan. Shuning uchun loyihada ishtirok etayotgan davlatlar unda o'zi uchun iqtisodiy va siyosiy foyda keltiruvchi jihatlarini topishi lozim.

Markaziy Osiyo yuragida joylashgan O'zbekiston Xitoy iqtisodiy kooperatsiyasi amalga oshirilishidan maksimum foyda olishi uchun jiddiy imkoniyatlarga ega. Respublikada dengizga chiqish imkonining yo'qligini hisobga olsak, "Ipak yo'li iqtisodiy Kamari" u uchun katta qiziqish uyg'otadi. 2017-yilning may oyida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Pekin shahrida bo'lib o'tgan "Bir makon, bir yo'l" forumida mazkur tashabbus har bir davlatning o'z imkoniyatlaridan to'la foydalanish, iqtisodiy jihatdan bir-birini to'ldirish, savdo hamda investitsiyalarni rag'batlantirish, o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish uchun keng yo'l ochishini qayd etdi. Loyihaning ro'yobga chiqarilishi dunyo tamaddunida Markaziy Osiyoning tarixiy mavqeini qayta tiklashga zamin yaratadi. Haqiqatdan ham, O'zbekiston, XXR raisi Si Szinpingning «Bir makon, bir yo'l» tashabbusini qo'llab-quvvatlagan birinchi davlatlardan bo'ldi. O'tgan yillar mobaynida O'zbekiston va XXR davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish uchun bir qator bitimlar to'plamini imzoladi. Ikki davlat o'rtasidagi tovar aylanmasi 2016-yilda 4 mlrd. dollarga teng bo'lgan. 2016-

yil iyunida O'zbekiston va XXR rahbarlari ishtirokida Angren-Pop elektrlashtirilgan temir yo'li va Qamchiq tunnelining ochilish marosimi o'tkazildi. Bu loyiha Xitoyning «China railway tunnel group» kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirildi». Xitoy kompaniyalari O'zbekistonning turli iqtisodiyot va sanoat zonalari: «Navoiy», «Jizzax» va «Angren»da har xil loyihalarni amalga oshirishda qatnashmoqdalar.

Pekinda bo'lib o'tgan oliy darajadagi forumda O'zbekiston Xitoy g'oyasini amaliy ro'yobga chiqarishga qaratilgan bir qator aniq takliflarni ilgari surdi. Shu jumladan, prezident Shavkat Mirziyoyev "Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston" temiryo'li qurilishini tezroq boshlash ahamiyatiga urg'u berdi.

Bundan tashqari, iyun oyida Ostonada bo'lib o'tgan ShHT sammitida o'zbek tomoni tashkilotga a'zo davlatlar, kuzatuvchilar va hamkor davlatlar temiryo'l ma'muriyatlari rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini yo'lga qo'yish tashabbusi bilan chiqdi. Yangi maydonchaning asosiy vazifalari shaffof transport tariflarini shakllantirish, yuk va yo'lovchilar tashishning yagona xavfsizlik me'yorlarini o'rnatishdan iborat bo'lishi taklif qilinmoqda. Shu tariqa, O'zbekiston mahalliy mahsulotlarni yangi Xitoy va boshqa mamlakatlar bozorlariga olib chiqish uchun XXR imkoniyatlari va manbalaridan foydalanishi, milliy iqtisodiyotning asosiy sohalariga investitsiyalar jalb qilish, logistik imkoniyatlarini yanada to'liqroq amalga oshirishi mumkin.

Toshkentning "Bir makon, bir yo'l, bo'yicha pozitsiyasi mamlakatimizning Pekin bilan har tomonlama strategik hamkorlikni yanada chuqurlashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlari bilan bir qatorda bormoqda. Xitoy O'zbekistonning yetakchi savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlaridan hisoblanadi. 2018-yil yakunlariga ko'ra, ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi **35** foizga oshib, **6,42** mlrd dollarga yetdi. O'zbekiston hududida Xitoy sarmoyasi ishtirokida **1121** korxonada faoliyat ko'rsatmoqda. 2018-yilda **344** korxonada tashkil etilib, bu 2017-yildagi ko'rsatkichdan **2** barobar ko'pdir. O'zbekiston iqtisodiyotiga jalb qilingan Xitoy sarmoyalarining umumiy qiymati **8** mlrd dollardan oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Do`stov U. Zamonaviy o`zbek-xitoy munosabatlari (2010□2018) // https://uzanalytics.com/xalqaromunosabat/3946/#_ftn2□2019-yil 30-yanvar
2. Idivov U. O`zbekiston-Xitoy do`stona munosabatlari rivojining mustahkam zaminlari. Sharq mash□ali. 2013, № 1. – B. 51.
3. Si Szinpin. Xitoy-O`zbekiston do`stligining yangi yorqin sahifalari. – “Xalq so`zi”. 2016-yil 21-iyun.
4. O`zbekiston-Xitoy: strategik sheriklik va do`stlik munosabatlarini yanada rivojlantirish yo`lida // www.uza.uz.